


## Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-sentyabrida 1804 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,8% ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (27,0 %), sanoat tarmog'ida (22,7 %), savdo sohasida (18,2 %), qurilish tarmog'ida (12,2 %), yashash va ovqatlanishda (6,9 %), boshqalarda (10,2 %), tashish va saqlashda (2,8 %) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




**2018 yilning yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Arnasoy tumanida 21,2 birlikda, Mirzacho'l tumanida 20,6 birlikda, Jizzax shaxrida 20,4 birlikda, Zafarobod tumanida 20,0 birlikda, Yangiobod tumanida 18,3 birlikda va Zarbdor tumanida 18,0 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 12,8-17,8 birlik oralig'ida Zomin, Paxtakor, Forish, Baxmal, Sharof Rashidov, G'allaorol va Do'stlik tumanlarida aniqlandi.

**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi  
dinamikasi yanvar-sentyabr holatiga, %**



**2018 yil yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi  
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>66,6</b>	<b>97,0</b>	<b>68,3</b>
Jizzax sh.	66,0	94,0	45,1
tumanlar:			
Arnasoy	60,7	100,0	99,2
Baxmal	100,0	100,0	87,4
G'allaorol	100,0	100,0	99,0
Sharof Rashidov	100,0	100,0	98,8
Do'stlik	19,1	100,0	99,0
Zomin	71,6	100,0	86,0
Zarbdor	75,7	100,0	98,4
Zafarobod	61,4	100,0	98,3
Mirzacho'l	100,0	74,2	98,6
Paxtakor	62,9	100,0	94,8
Forish	100,0	100,0	99,5
Yangiobod	100,0	100,0	98,3

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Baxmal (100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), G'allaorol (100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Forish (100,0 %) va Yangiobod (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilish soxasida Jizzax shaxri (94,0 %), Mirzacho'l tumani (74,2 %) tashkil etgan bo`lsa, qolgan tumanlarda 100,0 foiz kichik tadbirkorlik xissasiga to`g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida Forish (99,5%), Arnasoy (99,2 %), G'allaorol (99,0 %) va Do'stlik (99,0 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1400,6 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 66,6 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 101,3 % ni tashkil qildi;

– 978,3 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 43,8 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 123,8 %ni tashkil qildi;

– 994,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 97,0 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 107,1 % ni tashkil qildi;

– 1551,5 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 68,3 %), 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 115,5 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 92,2 % yoki 2898,3 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 103,9 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 48,9 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 90,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 23,4 mln. AQSh dollariga kam yoki 67,6 % ni tashkil etdi;


– avtomobil transporti yuk aylanmasi viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 98,4 % ni tashkil qildi;

– yo`lovchi aylanmasi viloyat jami yo`lovchi aylanmasining 98,0 %ni tashkil etdi;

## Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




### 2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (755,1 mlrd.so'm), Sharof Rashidov tumanida (107,4 mlrd.so'm) va Forish (104,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangiobod tumanida (22,2 mlrd.so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




### 2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (674,9 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (438,2 mlrd.so'm), Zomin (354,7 mlrd.so'm), G'allaorol (272,7 mlrd.so'm) va Baxmal (268,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



### **2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Jizzax shahri (558,2 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (194,8 mlrd.so'm) va G'allaorol (144,3 mlrd.so'm), Zomin (98,1 mlrd.so'm) va Baxmal (80,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 46 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumlotlari tahlili, respondentlarning 10,9 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 65,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 25,0 % va 75,0 %, xizmatlar sohasida – 11,1 % va 55,6 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 15,4 % va 46,2 %, sanoatda – 88,0 % qoniqarli deb hisoblashini tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 22,0 %, qurilishda – 16,6 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 38,4 %, xizmatlarda – 33,3 % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy vaziyatni baholash  
2018 yil III–chorak uchun, %**



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 100,0 % sanoat korxonalari, 83,3 % – qurilish, 100,0 % – xizmatlar, 87,5 % – savdo va 53,8 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rileyotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.